# UZBEKISTAN AIRWAYS

## INFLIGHT MAGAZINE

May, 2022

#01



**Qoraqalpogʻiston**
Oʻ ZIGA XOS
NOYOB YURT

**The unique**
KARAKALPAKSTAN

**06**
**Stixiya**
MOʻYNOQDAGI
FESTIVAL

**The Stihia** FESTIVAL IN MUYNAK

**16**
**Sahrodagi**
XAZINA

**Treasure of** THE DESERT

**13**
**Moʻynoq aeroporti:**
OROLQUM YARIM CHOʻLLARI
ORASIDAGI AERODROM

**Muynak airport:** AN AERODROME AMONG THE SEMI-DESERT ARALKUM


UZBEKISTAN
HELICOPTERS
Helicopter rides all over Uzbekistan
Vertolyotlar butun Oʻzbekiston boʻylab parvoz qiladi
UK12505
Vertolyotlarda ishonchli va qulay sayohatlar
We offer you reliable, safe and comfortable helicopter tours on
Airbus H125, Airbus H130 and Mi-8 MTV
For more information
Batafsil maʼlumot uchun
+998 99 875 79 50

# Uzbekistan Airways

Bort jurnali Inflight Magazine

#01, May, (106) 2022



Tahririyat kengashi raisi
Chairman of the Editorial Board

Ilhom Mahkamov

Bosh muharrir
Editor-in-Chief

Yulduz Latipaeva

Dizayn va sahifalovchi
Design & Layout

Nodira Shoxizindayeva

Muharrir, musahhih
Editor, proofreader

Dilyora Rahimova

Tahririyat jamoasi
Editorial team

Ozoda Azimova
Kamola Ikramova
Bahodir Imomjonov
Darya Penzova
Matluba Kuliyeva
Jamoliddin Hamdamov

Foto
Photo

Feruz Rustamov
Rakhim Kalibaev
Timur Karpov



Reklama bo‘yicha murojaat:
For advertisement:

+998 78 140-45-20
+998 78 140-45-21



Manzil:
Amir Temur shohko‘chasi, 41, Toshkent, 100015, O‘zbekiston
Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21



1993-yildan beri nashr etiladi.
«UZBEKISTAN AIRWAYS» AJ Tahririyati



Address:
Amir Temur Avenue, 41, Tashkent, 100015, Uzbekistan
Tel.: +998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21



Published Since 1993 Publisher — JSC «UZBEKISTAN AIRWAYS»

ISSN 2181-8266

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 03.01.2007-yilda 0115 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

The magazine is registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on 03.01.2007. Registration number No 0115

«PRINTUZ» MCHJ bosmaxonasida chop etilgan. Buyurtma № 560 Adadi 10 000
Manzili: Toshkent sh., Mirobod tumani, Mirobod ko‘chasi, 41/2 -uy

Printed at PRINTUZ Ltd. Order # 560 Circulation - 10 000
Address: 41/2, Mirabad st. Tashkent

# MUNDARIJA

# CONTENTS


| | | |
|---|---|---|
| 06 | Qum, kemalar qabristoni va texno - Mo'ynoqdagi Stixiya festivali | Winds, sands, ship graveyard and techno - the Stihia Festival in Muynak |
| 13 | Mo'ynoq aeroporti: Orolqum yarim cho'llari orasidagi aerodrom | Muynak airport: an aerodrome among the semi-desert Aralkum |
| 14 | Qoraqalpog'iston o'ziga xos noyob yurt | The unique Karakalpakstan |
| 16 | Sahrodagi xazina | Treasure of the desert |
| 20 | Rally Muynak: Orol dengizi qirg'og'idagi poygalar | Rally Muynak: racing on the coasts of the Aral Sea |
| 24 | Ichan Qal'aga sayohat qilish uchun 5 sabab | 5 reasons to visit Ichan Kala |
| 29 | Samolyotda unutib qoldirilgan buyumlarni qanday qilib qaytarish mumkin? | How to return forgotten items on a plane? |
| 30 | Aviakompaniyaning qo'shimcha xizmatlari | Uzbekistan airways additional services |
| 32 | Yo'lovchilar uchun foydali ma'lumotlar | Useful information for passengers |




# Hampton – aniq tanlov

Hampton by HILTON

## Qayerda bo'lsangiz ham, o'zingiz istagan tarzda dam oling.

Biznı tanlagan mehmonlarga doimo qulaylik va funksionallikni taklif qilamiz. Mehmonxonamizda qulay yashash uchun hamma narsa mavjud.

Hampton by Hilton
Tashkent
17, Istıqbol str.,
Tashkent, Uzbekistan,
100047
+998712052200
http://hampton.com/

- Bepul issiq nonushta
- Zamonaviy fitness markazi 24/7
- Biznes markazi 24/7
- Bepul Wi-Fi

Hampton - bu butun dunyo bo'ylab 2700 ta mehmonxonadir. Qaysi birida qolsangiz, sizni samimiy tabassum va e'tibor bilan kutib olishadi. Chunki mehmonlarimiz xursand bo'lsa, biz ham xursandmiz.

**Bu 100 foiz Hampton™ kafolatidir**

# **The easiest decision** of your trip

## Delivering the exceptional stay you deserve, everywhere you want to be.

Intuitively designed for both functionality and comfort, it's our priority to give you **a seamless experience – every time**. With a variety of amenities you can count on, you will have everything you need to stay on track.

Hampton by Hilton Tashkent
17, Istiqbol str.
Tashkent, Uzbekistan, 100047
+998712052200
http://hampton.com/

- Free, hot breakfast
- Modern fitness centre 24/7
- Business center 24/7
- Free WiFi

With 2,700 locations across the globe, wherever and whenever you stay with us you'll be welcomed with a warm smile and thoughtful service that makes you happy – because that's what makes us happy.

**That's the 100% Hampton Guarantee™**

# HURMATLI YO‘LOVCHILAR!

Uzbekistan Airways jamoasi sizni aviakompaniya havo kemasi bortida ko‘rib turganidan benihoyat mamnun!
Ikki yillik tanaffusdan so‘ng Uzbekistan Airways jurnalining yangi nashrini taqdim etayotganimizdan xursandmiz. Jurnalimizda O‘zbekistonda ko‘rishingiz va bilib olishingiz mumkin bo‘lgan barcha qiziqarli ma’lumotlarni topasiz degan umiddamiz.
Jurnalimizning may oyidagi ilk sonida yo‘lovchilarimizga Qoraqalpog‘iston haqida gapirib berishga qaror qildik. Ushbu ajoyib mamlakat har bir mehmonni o‘ziga xos tabiati, noyob qadimiy an’analari va zamonaviy hayoti bilan hayratga solishiga ishonchimiz komil. Qoraqalpog‘iston O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, ko‘pchilik uchun hali ham yetib borish qiyin va juda sirli manzil. Ammo bugungi kunda ushbu makon nafaqat tadbirkorlar, ekologlar va yuqori san’at ixlosmandlari uchun, balki butun dunyodagi yoshlar uchun ham o‘ziga jalb etadigan haqiqiy markazga aylanib bormoqda. Qoraqalpog‘istonda qator erkin iqtisodiy hududlar, shuningdek, turli xalqaro festivallarga ega madaniy klasterlar ham tashkil etilmoqda.
Ekologik muammolarga qaramasdan, bu qattiq iqlim hukm suradigan, tabiati haqiqatan ham noyob, mehribon, kuchli, jasur odamlar yashaydigan o‘ziga xos o‘lka. Bu yerdagi iqlim keskin kontinental, quruq, jazirama yoz uzoq cho‘ziladi.
Qoraqalpog‘iston poytaxti - Nukus butun dunyoda noyob hisoblangan I. V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat san’at muzeyi joylashgan shahar sifatida tanilgan.
Qoraqalpog‘iston tabiiy resurslarga juda boy va uning iqtisodiy salohiyati istiqbolli. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda ushbu hududni o‘zimiz uchun qayta kashf etishimiz, qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz muhim. Uzbekistan Airways jurnali tahririyati o‘z kashfiyotlarini siz aziz yo‘lovchilarimiz bilan bo‘lishishga qaror qildi!

# DEAR PASSENGERS!

JSC "Uzbekistan Airways" welcomes you on board!
We are happy to present you a new edition of Uzbekistan Airways inflight magazine after a two-year break. In this edition you will learn the most interesting facts about Uzbekistan, as we are introducing Karakalpakstan to our readers. Karakalpakstan located in the north-west area of Uzbekistan amazes every guest with its extraordinary nature, unique ancient traditions and interesting modern life. For many people, Karakalpakstan remains a mysterious and unreachable place due to its remote location. But today it is rapidly becoming a real focal point not only for entrepreneurs, environmentalists, and lovers of high art, but also for young people from all over the world. Free economic zones are created here, as well as interesting cultural sectors with various international festivals. Despite environmental problems, the nature of this region is truly unique for its combination of a harsh climate and kind, strong, hardy people. The climate is sharply continental, dry, with long, slightly cloudy, hot summers. The capital of Karakalpakstan is the city of Nukus, known in the entire world for its unique State Museum of Arts named after Igor Savitsky. Karakalpakstan is rich with natural resources and its economic potential creates promising prospects. In short, this region has become much closer to us today, and we are excited to discover it for ourselves, to learn remarkable facts and share them with you.







# Qum, kemalar qabristoni va texno - Mo'ynoqdagi Stixiya festivali




FESTIVAL STIHIA

May oyi boshida Mo'ynoqda (Qoraqalpog'iston) Stixiya festivali bo'lib o'tadi va unga butun dunyodan tashrif buyuradigan mehmonlar soni yildan-yilga ortmoqda. Siz texno-musiqa muxlisi bo'lasizmi yoki 80-yillarning rok musiqasini tinglaysizmi, bundan qat'i nazar Stixiya sizni qum bo'ronlariga maftun qiladi va jahon DJ-lari yoki qoraqalpoq xalqining madaniyati bilan tanishtiradi.



Qurib borayotgan Orol dengizi qirg'og'ida ko'zga ko'rinmasada, hamma joyda mavjud tabiat kuchlari-to'rt unsur tarovati bor: havo, suv, olov va yer. Bir vaqtlar haqiqiy dengiz mavj urib turgan Mo'ynoqda to'rt unsurning barchasini, hattoki biz ko'rmaydigan suvni ham his qilasiz. Beshinchi unsur bu - barcha kuchlarni birlashtiradigan Inson.

**Stixiya** festivali bosh prodyuseri Otabek Sulaymonov va prodyuser hamda Toshkent ijodiy hamjamiyati MOK tashkilotchisi Odil Muxamedov bizga festivalning vazifalari haqida gapirib berdi: iste'dodlarni izlash, Orol dengizi muammosi. Loyiha O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, Turizm va madaniy meros vaziri Aziz Abduhakimov tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanadi.
Stixiya tashkilotchilari uchun yangi va hali kashf etilmagan joylarni topish mumkin bo'lgan sayyohlik yo'nalishi sifatida O'zbekiston haqida gapirish juda muhimdir. Mo'ynoq — mamlakatning ijtimoiy jihatdan eng murakkab hududi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mo'ynoq shahriga tashrif buyurgan birinchi prezident bo'ldi va bu shahar investitsiya va yangi g'oyalar talab qilayotgani haqida butun mamlakatga bong urdi.

- Xususiy sektorni ushbu mintaqa qiziqtirmaydi. Turizmni rivojlantirish uchun dengiz yo'q, savdo-sotiq yo'q. Agar biz Mo'ynoq kabi olis hududda muammolarni hal qilishni o'rgansak, butun mamlakat bo'ylab muammolarni hal qila olamiz, - deydi Otabek.

# Winds, sands, ship graveyard and techno - **the Stihia Festival in Muynak**

Every year, in the beginning of May, the Stihia ("Stihia" - the force of nature eng.) Festival takes place in Muynak, (Karakalpakstan), which gathers more and more guests from all over the world in its yurts. It doesn't matter if you are a fan of techno music, or listen to rock of the 80s, the Stihia will take you into the sand cycle and introduce you to the world of DJs and the culture of the Karakalpak people.



On the shore of the dried-up Aral Sea, one can feel the power of the elements, invisibly present everywhere. Four elements, air, water, fire and earth are equally represented in Muynak, where the sea was once real but we still feel it. The main element is a human being who unites all the elements.

**Stihia** - in Greek means element and force of nature. The organizers of the festival came up with the idea not to translate the word Stihia into English.

Otabek Suleymanov, producer-in-chief and Odil Mukhamedov, producer of the Stihia festival and MOC - creative community in Tashkent, told us about the great mission of the festival - to attain sustainable development of Muynak. It then breaks down into numerous objectives, including boosting tourism in post pandemic times, launching sustainable development projects in Muynak, and searching for local talents in music and other creative professions.

Organizers of the Stihia know the importance of declaring Uzbekistan as a tourist destination where you can find something fresh and new.

Muynak is a region with tons of social, economic and infrastructure difficulties due to its remoteness, but mainly due to the death of the Aral Sea. The region certainly needs more attention from the government, the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev became the first president to visit Muynak and gave a strong signal to the whole country that this city requires investment and new ideas.

- Unfortunately, the private sector is not entirely interested in the region. There is no sea that would help to develop tourism more and there is no brisk trade. But if we learn how to solve problems in such a remote region as Muynak, then we will be able to solve problems all over the country, **- producers say**



# Stixiya qanday paydo boʻldi?

**Shaharning zerikarli va tushkin koʻrinishiga qarab bolalarda yangi gʻoya tugʻildi - plastinkalar olib kelib, musiqa qoʻyish va uncha katta boʻlmagan klipni suratga olish. Birinchi festivalda 50 kishi ishtirok etgan boʻlsa, ulardan 10 tasi voqea haqida tasodifan xabar topgan xorijliklar edi.**

**Festivaldan soʻng tashkilotchilar Stixiya ularning oldiga katta maqsadlar qoʻyganini angladilar.**

- Kimdir Orol dengizi muammosi orqali festivalga odamlarni jalb qilayapsiz deyishi mumkin. Lekin bu shaharni yaxshiroq qilishga yordam berarmikin? Odamlar mintaqaga qiziqish bildiradimi va ular bu yerga kelishga tayyormi? Biz uchun shaharning asosiy dushmani – bu biz unga qarshi yana va yana kurashadigan tushkunlik, - deydi festival tashkilotchilari.

Oʻzbekiston - sayyohlar uchun ekzotik mamlakat, Moʻynoq esa - yangi tuygʻularni his etish, hashamatdan butunlay voz kechib, tabiat kuchini anglash imkoniyatidir.

Moʻynoqda mehmonxonalar faqat oʻtgan yildan paydo boʻla boshladi. Birinchi va ikkinchi Stixiyada mehmonlar qulaylik haqida unutishlariga toʻgʻri kelgan edi. Lekin festivalning barcha mehmonlari uchun qulaylikdan koʻra, gʻayrioddiy narsalarni topish va koʻrish istagi kuchliroq edi.

**Agar ushbu festival Toshkentda oʻtkazilsa, shunchalik qiziqarli boʻlarmidi?**
Hoynahoy, yoʻq. Tashkilotchilar DJ-larga festival oʻtadigan joyning fotosuratlarini yuborishlari bilanoq, ular hech narsa teng kelolmaydigan ajoyib muhit uchun unda ishtirok etishga rozi boʻlishadi.

- Turizm va madaniy meros vazirligi ishtirokisiz loyihani amalga oshirish juda qiyin boʻlardi. Boshqa mamlakatlardan kelgan odamlar turizm vazirligi bizga yordam berayotganini eshitib, hukumat texnofestivallar singari tadbirlarni amalga oshirayotganini koʻrib juda hayron qolishadi, - deydi festival tashkilotchilari.

# How was the Stihia born?



From the dull and depressive look of the city, the guys thought of bringing records, put on music and shoot a small video. Apart from the chaotic gathering of hundreds of locals, there were 50 people at the first festival, 10 were foreigners who found out about the event completely by accident.

After the one-day music event back in 2018, it became evident that the project may grow into something bigger.

- Someone may say that we are hyping the Aral Sea. But what if this helps to make the city better? If people become interested in the region, will they be ready to come here? Our major enemy is the gloominess, sadness in the town, and we are committed to shine this out with everything we can, **- festival organizers share their thoughts.**

Uzbekistan is an exotic country for tourists, and Muynak is where one can unleash new emotions, throw off the glamor and feel the power of nature. Hotels in Muynak started emerging only last year. In the first and second years of the Stihia, guests lived in tents, yurts and some guest houses. But all visitors of the festival had one common desire - to find and see something unusual.

Would the festival be so attractive if it was held in Tashkent?
Probably not. When the organizers sent photos of the location to the DJs, they agreed to perform for the sake of the unrivaled atmosphere and otherworldly experience. The Uzbek government certainly plays an important role in supporting the festival.

Producers particularly mention Mr. Aziz Abdukhakimov, Uzbek Deputy Prime Minister and Minister of Tourism and Cultural Heritage, who has been supporting the progressive concept and implementation of the festival from day one.

- When people from other countries find out that the Ministry of Tourism and Cultural heritage is helping us, they are extremely surprised that the government can support things like techno festivals, - **the organizers say.**



# BU YIL QANDAY YANGILIKLAR KUTILMOQDA?

Festival butunlay notijorat xarakterga ega boʻlsada, xarajatlarni qoplashi kerak. Bu yil festivalni uch bosqichda oʻtkazish rejalashtirilgan: elektron, progressiv va etnik. Shuningdek bu yerda, “Stihia Gen”, “Stihia Arts” va boshqalarni oʻz ichiga olgan turli ijtimoiy tashabbuslar ham boʻlib oʻtadi. Bu yil koʻproq yorituvchi moslamalar, koʻproq musiqa va DJ-lar boʻladi. Bundan tashqari, endi Stixiyaga tashrif buyurish uchun festivalga chiptalar sotib olish kerak. Chiptalarning narxi qimmat emas, shuning uchun agar kishi Stixiyaga kelishga tayyor boʻlsa, u chipta uchun 200 000dan 400 000 soʻmgacha sarflashga ham tayyor boʻladi.

> Boshqa hamma narsa ilgarigidek – qum, musiqa va bir-biriga oʻxshash musiqa shinavandalari.

- Umid qilamizki, oradan 10 yil oʻtib  Stixiya rivojlanish vositasiga aylanadi. Festivalga 30000 gacha sayyohni jalb qilishni rejalashtiryapmiz. Global musiqa va ilmiy industriyaga yanada koʻproq integratsiya qiling. Misol uchun, Leonardo Di Kaprio bizning festivalimizga tashrif buyurganida ajoyib boʻlar edi, chunki u atrof-muhitni saqlab qolish uchun kurashadi. Yoki Festival forumiga Orol dengizining muammolarini muhokama qilish uchun mansabdor shaxslar yoki bosh vazir keladi. Va menimcha, biz bunga erishamiz. Ehtimol, bir kun kelib mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev festivalni ochib berishi ham mumkin,  - deydi prodyuserlar.

> Eng muhimi, har bir insonda istak boʻlsa bas. Oʻz Stixiyasini topish va u bilan uchrashish istagi.

DARYA PENZOVA





# What is new this year?

The festival is completely non-commercial, but expenses must be covered. Three stages are planned for this year: electronic, progressive and live. It will also host various social initiatives including Stihia Gen, Stihia Arts and more. This year there are more light installations, more music and DJs. There is also an entry ticket to the festival. The cost of tickets is not high, so if a person is ready to come to the Stihia, they will spend around from 200,000 to 400,000 sums (approx. $20-40).

In 10 years, we hope that the Stihia will become a more effective instrument of attaining sustainable development in Muynak. We plan to attract up to 30,000 tourists to the festival and become more integrated into the global electronic music industry. For example, it would be a great honor if Leonardo DiCaprio visited our festival, because he is a big proponent for saving the environment. In addition, we would love if officials of a Central Asian country came to our Stihia N+1 forum to discuss the problems of the Aral Sea, and I keep on being optimistic we will get there. Perhaps someday Shavkat Mirziyoyev himself would open our Science forum and that would be a real triumph, **- say the producers.**

Otherwise, everything remains the same - sands, winds, music and people who are complete strangers, but for several days they become part of one big tribe.

There is hidden desire to strive for the Great Unknown and follow your personal universe. And that is why the Stihia exists.

DARYA PENZOVA



# Mo'ynoq aeroporti: Orolqum yarim cho'llari orasidagi aerodrom




Joriy yil Mo'ynoq aeroporti 30 yildan so'ng qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. Aeroport asosan ichki aviatashuvlar uchun xizmat ko'rsatadi, chunki terminal hali xalqaro talab va standartlarga javob bermaydi.

1947-yilda Mo'ynoq shahrida O'zbekistonning eng shimoliy aeroporti qurilgandi. 3-darajali "Mo'ynoq" aerodromi An-24, Yak-40 kabi yengil samolyotlarni, shuningdek barcha turdagi vertolyotlarni qabul qilgan. 1960-yillardan 90-yillarning boshlarigacha bo'lgan davrda aeroport orqali mahalliy havo yo'llari, ya'ni Nukus, Urganch, Qo'ng'irot, Taxtako'pir, Tuley yo'nalishlari bo'yicha kuniga 19 tagacha yo'lovchi reyslari amalga oshirilgan.

1990-yillardan aeroport aviatsiya ishlarini bajarish vaqtida qo'nish yo'lagi sifatida ishlatiladi, shuningdek vaqti-vaqti bilan maxsus qatnov bilan kelgan havo kemalarini qabul qiladi.
Aeroportning so'nggi rekonstruksiya ishlari 2019-yilda boshlangan. Bugungi kunda terminal binosi, aeroport atrofidagi to'siqlar va uchish-qo'nish yo'lagi qurib bitkazilgan.

# Muynak airport: an aerodrome among the semi-desert Aralkum

In 2022, Muynak airport took the first test passenger aircraft after almost 30 years. It was Air Force One. President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev announced plans to launch new flights on the route Tashkent – Muynak – Nukus.

In 1947, the northernmost airport of Uzbekistan was built in Muynak. It was able to receive An-24, Yak-40 and other lighter aircrafts and any type of helicopters.

From the 1960's to the 1990's, the airport was able to handle up to 19 passenger flights per day, which were usually operated by local directions – Nukus, Urgench, Kungrad, Takhtakupir, Tuley.

Since the 1990's, the airport has been used as a landing place for flight operations and occasionally hosts aircraft arriving on a special flight. Last reconstruction of the airport began in 2019. To date, a new terminal building, an airport fence and an airstrip have been built. The airport will be used primarily for domestic flights because the terminal still does not meet international requirements and standards.

MATLUBA KULIYEVA

# Qoraqalpog'iston o'ziga xos noyob yurt



Hozirgi Qoraqalpog'iston hududida yashab o'tgan qabilalarining bir qismi qora qo'y junidan tayyorlangan bosh kiyim - qalpoq kiyganligi tufayli ushbu o'lkada istiqomat qiluvchilar qoraqalpoqlar deb ataladi degan ma'lumotlar mavjud. Qoraqalpoq xalqining tarkibi turli etnik guruhlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun uning madaniyati ko'p qirrali va boshqa Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga o'xshash.

O'zbeklarga geografik jihatdan yaqinligiga qaramay, qoraqalpoq madaniyati ularnikidan boshqacharoq. Ular asli yer egalari emas, balki qadimgi ko'chmanchilardir. Ularning ovullari ko'proq qozoqlarnikiga o'xshaydi. An'anaviy mashg'uloti — dehqonchilik va baliq ovlash bilan birga yarim o'troq chorvachilikdan iborat. Qoraqalpoqlarning an'anaviy hunarmandchiligi — yog'och o'ymakorligi, charmga naqsh solish, zargarlik, to'quvchilik, gilamdo'zlik, kashtachilik.

Xalqning madaniy merosi folklorda, amaliy ijodda namoyon bo'ladi. Bu yerda oilaviy-maishiy urf-odatlar va an'analarga amal qilinadi.

Folklor odatdagidek ertak, afsonalar, marosim qo'shiqlari va raqslarga boy. Xalq cholg'u asboblarini barcha oilaviy bayramlarda uchratish mumkin. Eng keng tarqalgan milliy cholg'u asbobi – childirma. U xalq marosimlarining ajralmas qismi.



Yigirmanchi asrga qadar qoraqalpoqlarda faqat amaliy san'at mavjud bo'lgan. Ayniqsa, tukli gilam, matoga gul tushirish, kashta tikish, quroqchilik san'ati, zargarlik, metall buyumlar yasash, charmga naqsh o'yish va gul solish, kashtado'zlik, yog'och o'ymakorligi va mozaikasi, dastgohda mato to'qish ayniqsa rivojlangan. Qoraqalpoq xalq amaliy san'atining muhim jihatlaridan biri – zamonaviy interyerda buyumlardan keng foydalanish, uning zamonaviy bezak bilan uyg'unligi. Bu Qoraqalpog'iston amaliy san'atining deyarli barcha turlariga, ayniqsa tukli gilamlarga tegishlidir.

Bu yerda ekologik ta'limning boy tajribasi to'plangan. Qoraqalpog xalq san'ati ekologik va amaliy bo'lib, unda xalqning etnik o'ziga xosligi va tarixiy o'zligi namoyon bo'ladi.

Uzbekistan Airways Toshkent-Nukus, Nukus-Toshkent yo'nalishi bo'yicha parvozlarni har kuni amalga oshiradi. Batafsil ma'lumotlarni www.uzairways.com saytidan olishingiz mumkin.



# The unique Karakalpakstan

Derived from the Turkic language, the word "karakalpak" means "black hat". The composition of the Karakalpak people includes various ethnic groups, so its culture is diverse and echoes the cultures of other Central Asian peoples.
Despite the geographical proximity to the Uzbeks, the Karakalpak cultural landscape differs. They are not ancient agriculturists, but nomads. Their auls are more similar to the Kazakh ones.
Traditional occupations are semi-sedentary stockbreeding, combined with irrigation farming and fishing. The traditional crafts of the Karakalpaks are wood carving, leather stamping, jewelry, weaving, carpet weaving, and embroidery. The cultural heritage of the people is manifested in folklore, applied art. Family customs and traditions are greatly respected.

Uzbekistan Airways operates flights "Tashkent-Nukus, Nukus-Tashkent" daily. You can find out more at **www.uzairways.com**

Folklore, as usual, is full of fairy tales, legends, ritual songs and dances. Folk musical instruments always played  at all family holidays and tambourine is the most common national instrument.  It is also the most important instrument of folk rituals.
Until the 20th century, applied art exclusively existed among the Karakalpaks. Pile carpet weaving, patterned weaving, embroidery, jewelry, metal products, embossing and embroidery on leather, carving and inlay on wood and handmade fabrics are among the most developed techniques.
One of the important qualities of the folk applied art of the Karakalpaks is the ability of using the products in a modern interior. This applies to almost all types of applied art of the Karakalpaks, but especially to pile carpets.
They have traditions in environmental education. The folk art of the Karakalpaks is ecological and practical, and it manifests the ethnic identity and historical authenticity of the people.



# SAHRODAGI XAZINA

Nukus shahridagi badiiy muzeyni O'zbekistonning asosiy diqqatga sazovor joylaridan biri deb atasak, mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi o'n yillikdagi nufuzli jahon ommaviy axborot vositalari Nukusni o'ziga xos sayyohlik yo'nalishlarining eng yaxshi ro'yxatiga kiritdi. Buning sababi – bu yerda jahon darajasidagi noyob muzeyning mavjudligi. "Cho'ldagi Luvr" – bu ta'rif uzoq yillardan beri muzeyning eng faol xorijiy mehmonlari bo'lib kelayotgan fransuzlar tomonidan berilgan.

Muzey bor yo'g'i 52 yoshda, u 1966-yilda ochilgan. Muzeyga yaqinda berilgan maqom uchun bu hali uncha katta davr emas. Uning tarixi va kolleksiyalari chindan ham noyob va u bilan bir qatorda qo'yiladigan dunyoning mashhur muzey to'plamlari shakllanishining klassik qonunlaridan farq qiladi.
Muzeyning mashhurligi tufayli Nukus Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridan keyin ehtimol, O'zbekistonda to'rtinchi eng muhim sayyohlik maskaniga aylandi.

Moskvadagi Pushkin muzeyida kolleksiyadagi tasviriy va amaliy san'at asarlari, shuningdek, arxeologik ashyolarning muvaffaqiyatli ko'rgazmasi, 2017-yilda Nukusda yangi muzey majmuasining ochilishi uning mashhurligini eng yuqori cho'qqiga olib chiqdi. Ushbu loyihalarga ko'p yillar davomida tayyorgarlik ko'rilgan. Muzey tarixi shunchalik jumboqlarga to'laki, bu hali ko'p avlod tadqiqotchilarni o'ziga rom qilishi shubhasiz.



TREASURE OF THE DESERT

# Treasure of the desert

It will not be an exaggeration if we call the art museum in Nukus as one of the main sights of Uzbekistan. Many prestigious world media included Nukus in their top lists of unusual tourist destinations. The reason is a unique world-class museum called the State Museum of Arts of Igor Savitsky "Louvre in the desert" - this definition is given by the French, who have been the museum's most active foreign visitors for many years.
Established in 1966, the museum is only fifty-five years old. The museum is in its infancy. Its history and collections are truly unique and do not fit into the classical canons of other famous museum collections around the world, which the museum is often grouped with.
Due to the huge popularity of the museum, Nukus has become perhaps the fourth most important tourist destination in Uzbekistan after Samarkand, Bukhara and Khiva. A successful exhibition of fine and decorative art, as well as archaeological items from Savitsky`s collection at the Pushkin Museum in Moscow, the opening of a new museum complex in Nukus in 2017, became the peak of his fame. These projects have been in construction for many years. The history of the museum is so ambiguous that it will intrigue many generations of researchers.



# MUZEY KOLLEKSIYASI

Muzey to'rt ming yildan ortiq xronologik qamrovga ega bo'lgan yuz mingga yaqin eksponatlarni o'z ichiga olgan Osiyodagi eng yirik badiiy to'plamlardan biriga ega. Ushbu to'plam asosini muzey asoschisi, moskvalik rassom Igor Savitskiy tomonidan to'plangan qoraqalpoq xalq amaliy san'ati kolleksiyalari tashkil etadi.

To'plamning o'zagi  rassomlarning avangard uslubidagi asarlaridan iborat. Kolleksiyaning katta qismi XX asr rassomlarining asarlari, shu jumladan sotsialistik realizm uslubidagi asarlar.

## HAR BIR KOLLEKSIYA – ASAR MUALLIFINING TARJIMAI HOLI

Zamonaviy san'at eksperti D. Rendelning "Har bir kolleksiya – o'z egasining tarjimai holi" iborasi "Nukus tarixi"ning butun mazmunini ochib beradi. Savitskiy hech qachon mashhurlikning ortidan quvmagan, aksincha, yangi, noma'lum nomlarni kashf etishga intilgan. Siyosiy  qatag'onlar bilan bog'liq fojiali taqdirlar uni yo'lidan qaytara olmadi. Kolleksioner quvg'inga uchragan mualliflarning asarlarini jismoniy yo'q qilinishidan asrab qolish yo'llarini topa oldi.

Ularning umidsizlikka tushgan bevalari va bolalarini ko'rgani kelganda, Savitskiy ulardan o'zini qiziqtirgan deyarli hamma narsani sotib olar edi.  Ba'zi oilalar bu asarlarni saqlash uchun joy topa olmaganidan, ularni tashlab yuborishga tayyor turgan vaqtlar ham bo'lgan.

Savitskiyni Sharqning ekzotikasi o'ziga juda rom etgan, Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqishining tarixi esa beqiyos. Shu ma'noda, ko'pincha u bilan taqqoslashadigan Gogendan ham o'zib ketdi.



# Museum collection

The museum has one of the largest art collections in Asia, which has about one hundred thousand exhibits, with a chronological coverage of more than four millennia.
The collection was based of Karakalpak folk arts and crafts, collected by the founder of the museum, Moscow artist Igor Savitsky. The core is the work of avant-garde artists. A solid part of the collection is the works of the 20th century artists, including works of socialist realism.

## «Any collection is a biography of its owner»

The phrase of the modern art expert D. Rendel "Any collection is a biography of its owner" reveals the entire subtext of the "Nukus story". Savitsky never chased big names, on the contrary, he discovered new, unknown ones. He was not repulsed by the tragic fates associated with political repression. The collector found ways to save works from their destruction.
Visiting desperate widows and children of rogue artists, Savitsky bought almost everything that interested him. There were cases that some families were preparing to take the pictures to the trash, as there was nowhere to store these works.
Savitsky was very attracted by the exotic of the East, and had a unique passion for Central Asia. In this sense, he surpassed Gauguin, with whom he is often compared. He fell in love and glorified Karakalpakstan, which became his Polynesia. Having sacrificed his own creativity, he collected and saved the creations of other masters, also fascinated by the East. It is no coincidence that Western



experts called him one of the first serious patrons of the Uzbek school of Orientalism.

Collections of Orientalist art are presented in many museums and private collections around the world. The largest of them, dedicated to Uzbekistan, one of the most exotic countries in Central Asia, is located in the city of Nukus, in the State Museum of Arts of the Republic of Karakalpakstan named after Igor Savitsky. The museum can be safely called the "treasure of the desert."





V. A. Lysenko.
The Bull ("Buqa"). 1929.

Uning uchun Polineziyaga aylangan Qoraqalpogʻistonni nafaqat sevib, oʻz asarlarida tarannum etdi, balki oʻz ijodini ham qurbon qilgan holda, Sharq maftun aylagan boshqa rassomlarning asarlarini ham toʻplab, saqlab qoldi. Gʻarb ekspertlari uni oʻzbek orientalizm maktabining birinchi jiddiy homiylaridan biri deb atashgani bejiz emas.

Oriental sanʼat kolleksiyalari dunyoning koʻplab muzeylarida va shaxsiy toʻplamlarida namoyish etilgan. Ularning eng kattasi Markaziy Osiyoning ekzotik davlatlaridan biri boʻlgan Oʻzbekistonga bagʻishlangan boʻlib, Nukus shahrida, I. V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpogʻiston Respublikasi davlat sanʼat muzeyida joylashgan. Muzeyni bemalol "Sahro xazinasi" deb atash mumkin.

MARINIKA BABANAZAROVA

## Why was Muynak chosen for the rally?

The Ustyurt Plateau, the current shores of the Aral Sea, and the climate and geographical features of the city are ideal for such races. Rally Muynak was launched for the first time in 2019. In 2020, due to coronavirus restrictions, the rally had to be canceled, but the following year, Muynak again welcomed motorists and racers.

# RALLY MUYNAK: Orol dengizi qirg‘og‘idagi poygalar

Rally Muynak – qurib qolgan Orol dengizining qirg‘oqlarida bo‘lib o‘tadigan keng ko‘lamli va rang-barang tadbir.

Mo‘ynoq shahri Qoraqalpog‘istonda Nukusdan keyin mehmonxona, xostel va mehmon uylari mavjudligi bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. So‘nggi yillarda mintaqada unutilmas va yorqin faol tadbirlar va festivallarni rivojlantirishga harakat qilinmoqda.



# Rally Muynak: racing on the coasts of the Aral Sea

The Rally Muynak is a large-scale and colorful event that takes place on the shores of the dried-up Aral Sea.

After Nukus, the city of Muynak is the leader in Karakalpakstan in terms of the availability of hotels, hostels and guest houses. Over the past few years, the region has been trying to develop and hold memorable and vibrant active events and festivals.

## Nega poyga uchun aynan Moʻynoq tanlangan?

Ustyurt platosi, Orol dengizining hozirgi qirgʻoqlari, shaharning iqlimi va geografik xususiyatlari bunday poygalar oʻtkazish uchun ayni muddao.

Rally Muynak 2019-yildan oʻtkazila boshlangan. 2020-yilda koronavirus cheklovlari tufayli ralli bekor qilingan edi, ammo keyingi yil Moʻynoq yana avtomobil ixlosmandlari va poyga ishtirokchilarini qabul qildi.






Bu safargi ralli yanada kengroq va yorqinroq boʻladi. Tashkilotchilar poygani xalqaro miqyosda oʻtkazishni rejalashtirmoqdalar. 2019-yilda rallida Qozogʻistondan kelgan jamoa ishtirok etdi, ammo 2021-yilda, afsuski, chegaralar yopildi va chet elliklar musobaqada ishtirok eta olmadilar.

Oʻtgan yilgi ralli tashkilotchilari Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oʻzbekiston Respublikasi mudofaasiga koʻmaklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti, Joʻqorgʻi Kenges va Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi boʻlishdi.



Ralli gʻoliblariga avtomobil topshiriladi. 2021-yilgi qiziqarli poygalar toʻrt kun davom etdi. Bu yilgi Rally Muynak poygalari oʻtkazilishi yoz oyining boshlarida rejalashtirilgan. Xohlovchilar tanlovning birinchi kunida ishtirokchi sifatida roʻyxatdan oʻtishlari mumkin.

Ushbu tadbir yildan-yilga mintaqaga, ayniqsa, turizm sohasiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Ralli tadbirlari Moʻynoq imidjini yaxshilaydi, yangi mehmonxonalar yoki umumiy ovqatlanish joylarini ochish imkonini beradi. Poygada ishtirok etish mutlaqo bepul va har bir xohlovchi unda ishtirok etib koʻrishi va Orol dengizi va Moʻynoq goʻzalligini oʻz koʻzi bilan koʻrishi mumkin.




This time the rally will be even bigger and brighter. The organizers plan to indicate that the races will begin to be held internationally. In 2019, a crew from Kazakhstan took part in the rally, but in 2021, unfortunately, the borders were closed, and foreigners could not take part in the race.

Last year, the organizers of the rally were: the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan, Vatanparvar organization, Jokargy Kenes and the Council of Ministers of the Republic of Karakalpakstan. This year the list of organizers is subject to change.

The winners of the rally were awarded cars, and the races themselves lasted four days in 2021. This year the rally will take place no later than June. Anyone can register as a participant on the first day of the competition. The event itself from year to year has a positive effect on the region, especially in the tourism sector. The rally improves the image of Muynak, allowing new hotels, grocery stores, and cafes to open.

Participation in the rally is absolutely free, and anyone can participate and see the beauty of the Aral Sea, ship graveyard and Muynak with their own eyes.

DARYA PENZOVA



# ICHAN-QAL'AGA SAYOHAT QILISH UCHUN 5 SABAB



Ko'hna Xiva tarixi juda boy va qadimiy bo'lganligi uchun uni O'rta Osiyo Misri deb ham ataladi. Shaharda o'ndan ortiq qal'alar mavjud.

Asosiy diqqatga sazovor joy – Ichan-qal'a majmuasi. Bu ochiq osmon ostidagi muzey, unda 60 ga yaqin mahobatli inshootlar joylashgan: saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, minoralar.
Ichan-qal'aga tashrif buyursangiz, albatta: →

Ancient Khiva is also called Egypt of Central Asia as its history is very rich and long. The city has more than a dozen of fortresses.

# 5 REASONS TO VISIT ICHAN KALA

The main attraction is the fortress Ichan Kala. This is the open-air museum, about 60 grandiose structures are concentrated: here such as palaces, mosques, madrasas, mausoleums, minarets. While visiting Ichan Kala, you can: →

## ISLOM XO‘JA MINORASI TEPASIGA KO‘TARILING

1



Minoraning yuqori qismiga ko‘tarilsangiz, butun shahar kaftdek namoyon bo‘ladi. Xivaning eng baland minorasiga chiqish haqiqiy sarguzashtga aylanishi mumkin. Kirish joyida yo‘riqchi tik ko‘tarilish, tor devorlar, shiftlarning pastligi, zinapoyalarning silliqligi va dastlabki 20 metrga to‘liq zulmatda ko‘tarilishga to‘g‘ri kelishi haqida ogohlantiradi.

### Get to the top of Islom Khoja minaret

The top of the minaret provides a bird's eye panorama. The ascent to the highest minaret of Khiva can be a real adventure. At the entrance the instructor warns everyone: The climb is steep, the walls are narrow, the ceilings are low, the steps are slippery and the first 20 meters will have to be completed in absolute darkness.

2



## JUMA MASJIDI GO‘ZALLIGINI HIS QILING

Juma masjidi O‘rta asrlarda Xorazmning eng diqqatga sazovor binolaridan biri bo‘lgan. Masjid 10-asrda bunyod etilgan, ammo 18-asrda qayta qurilgan va bu yodgorlik mintaqadagi eng qadimgi masjidlardan biri hisoblanadi.

### Admire Juma Mosque

Juma Mosque was one of the most remarkable buildings of Khorezm in the Middle Ages. It dates from the 10th century but was rebuilt in the 18th century and it is believed that this monument is one of the most ancient mosques in the region.




# Pahlavon Maxmud majmuasini ziyorat qiling

Pahlavon Maxmud majmuasi Juma masjidi yaqinida joylashgan. Pahlavon Maxmud xalq shoiri va faylasuf boʻlib, oʻzining pahlavonligi va tabibligi bilan tanilgan. Maqbaraning asl qiyofasi juda oddiy boʻlgan, ammo keyinchalik bu yerda ziyoratchilar ibodat qiladigan xonaqoh va masjid qurilgan.

## Make a holy expedition in Pahlavan Mahmud complex

Pahlavan Mahmud complex is located near the Juma Mosque. Pahlavan Mahmud is a local poet and philosopher, famous for his heroic strength and ability to heal people. The original appearance of the mausoleum was very modest, but soon khanaka and mosques were built here, where pilgrims often prayed.






# Tosh hovli saroyiga tashrif buyuring

Bu Xivaning ichki qismi eng hashamatli moviyrang sopol koshinlar, oʻymakor naqshlar bilan bezatilgan yogʻoch ustunlar va nozik ganch bilan toʻla saroyi hisoblanadi. Ikki alohida kirish joyi saroyning ikkita alohida qanotiga olib boradi. Haramning shimoliy qanotida hunarmandchilik koʻrgazmalari oʻtkazib turiladi.

## Visit Tosh Hovli Palace

This palace, which means Stone House, contains Khiva's most sumptuous interior decoration, dense with blue ceramic tiles, carved wooden pillars and elaborate ghanch. Two separate entrances take you into two separate wings of the palace. The northern harem wing has some handicrafts exhibitions.




# SAQLANIB QOLGAN TOR KO'CHALARDA SAYR QILING

Ajablanarlisi shundaki, bu yerda uylar saqlanib qolgan, ularda bugungi kungacha bir necha yuz hunarmand oilalari yashaydi. An'anaviy ravishda ikki qavatli qilib qurilgan uylarning arxitekturasi yagona uslubga bo'ysunadi. Qadimgi davrlarda bo'lgani kabi, uylar quyoshda quritilgan xom g'ishtlardan qurilgan va loy suvoq bilan qoplangan.

## Walk along narrow authentic streets

Surprisingly there are still houses here, in which several hundred families of artisans live to this day. The architecture of houses, which are traditionally built within two floors, is subject to a single style. As in ancient times, the houses are finished with adobe and built of mud bricks made of clay and dried in the sun.

Bu yurtga tashrif buyurib, siz sharqona ertak qanaqa bo'lishini bir umrga eslab qolasiz, bu yerga yana va yana qaytib kelishni istaysiz.

By visiting these places, you will forever remember what an oriental fairy tale looks like and want to come back here.

Send us your query anytime!

Erkin Palace



35 rooms

Conference hall Capacity :
**40 people**

Transfer from / to the airport and railway station

**Free** parking

Close to old town

Delicious breakfast
(Continental Buffet)

Xizmatlar litsenziyalangan

For more information

+998 (62) 377 66 62
+998 (62) 377 66 63
+998 (99) 540 47 41

erkinpalace@gmail.com

www.erkinpalace.uz

Yakubov str, Khiva
Khorezm region, Uzbekistan

## SAMOLYOTDA UNUTIB QOLDIRILGAN BUYUMLARNI
### qanday qilib qaytarish mumkin?

Ko‘pincha yo‘lovchilar samolyotdan tushayotganlarida beparvolik qilib, yoki tiqilinchda shaxsiy buyumlarini qoldirib, chiqib ketishadi. Bagaj yoki shaxsiy buyumlar yo‘qolganda harakat qilish tartibi mavjud. “Uzbekistan Airports Handling” MChJ bagaj qidirish guruhi boshlig‘i Natalya Arapbayeva bunday vaziyatda nima qilish kerakligini tushuntirib berdi.

"Havo kemasi Toshkentga yoki boshqa istalgan shaharga kelib qo‘ngach, bortkuzatuvchilar butun samolyotni aylanib, har bir yuk javonini va har bir o‘rindiq ostini tekshirishlari kerak. Ular havo kemasida topilgan barcha buyumlarni I.Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportining "Lost and Found" (Topilgan buyumlar) bo‘limiga, agar havo kemasi boshqa shaharga kelib qo‘ngan bo‘lsa, aviakompaniyaning aeroportdagi vakolatxonasiga topshirishlari kerak. Yo‘lovchilar yo‘qolgan buyumlarini shu yerdan olishlari mumkin", - dedi Natalya Arapbayeva.






**Natalya Arapbayeva**

“Uzbekistan Airports Handling” MChJ bagajni qidirish guruhi rahbari

Chief of the baggage tracing group Uzbekistan Airports Handling LLC

Toshkentda yo‘lovchi yo‘qolgan buyumini olishi uchun, haftaning istalgan kunida, kunning istalgan vaqtida +998 78 140 29 14 raqamiga qo‘ng‘iroq qilishi, yoki yo‘qolgan buyumni batafsil tavsiflagan holda claim@uzairways.com elektron manzilga so‘rov yuborishi ham mumkin.

"Yo‘lovchiga yo‘qolgan buyum topilgani haqida xabar berilgandan so‘ng, u pasporti, chiptasi va havo kemasiga chiqish talonini taqdim etib, shu kuniyoq uni olib ketishi mumkin. Yo‘lovchilar tomonidan unutilgan buyumlar Toshkent aeroportidagi saqlash xonasida 3 oy davomida saqlanadi va shu muddat o‘tgach utilizatsiya qilish uchun yuboriladi. Boshqa shaharlardagi vakolatxonalarda buyumlarni saqlash muddati boshqacha bo‘lishi mumkin", - dedi Natalya Arapbayeva.

**Shuni esda tutingki, 2022-yil 1-maydan buyumlarni saqlash pullik bo‘lib, kuniga 7 yevroni tashkil etadi.**



## HOW TO RETURN
### forgotten items on a plane?

In case of baggage or personal belongings loss, there is a general course of actions. Natalya Arapbaeva, chief of the baggage tracing group LLC «Uzbekistan Airports Handling» explains what to do.

-After the aircraft landing in Tashkent or in any other city, according to the rules, the flight attendants should go around the entire aircraft, check every shelf and under each seat. And whatever they find left on board, they have to hand over to Lost and Found counter or in the arrival terminal of the international airport in Tashkent. In other cities, go to the representative office at the airport, - Natalya said.

In Tashkent, to pick up the lost thing, the passenger needs to leave a request by number: **+998 78 140 29 14.**

The line is available 24/7, or to send an application with a detailed description of the lost object to the
**e- mail: claim@uzairways.com**

- Once a passenger is informed that the lost item have been found, he may immediately pick it up, presenting a passport, a ticket and a boarding pass. Items forgotten by passengers are stored in a storage room at the international airport of Tashkent for 3 months and after this period, they are sent for disposal. The period of storage of things in representative offices of other cities, may differ, - clarified **Natalya Arapbaeva.**

Please note that starting from May 1, 2022, the storage of things will be charged - 7 euros per day.

MATLUBA KULIYEVA

# AVIAKOMPANIYANING QO‘SHIMCHA XIZMATLARI

## 1. www.uzairways.com saytida avichiptalarni onlayn xarid qilish

www.uzairways.com saytida Siz «Uzbekistan Airways» AJning istalgan yo‘nalishiga aviachipta xarid qilishingiz mumkin. Sizni qiziqtirgan yo‘nalishni tanlang va UzCard/Humo milliy to‘lov tizimlari, shuningdek, Visa/MasterCard/Mir xalqaro tizimlari orqali aviachipta xarid qiling.

## 2. Yuridik shaxslar uchun UzCard korporativ kartalaridan foydalangan holda aviachiptalarni onlayn xarid qilish

www.uzairways.com saytida Siz «Uzbekistan Airways» AJning istalgan yo‘nalishiga aviachipta xarid qilishingiz mumkin. O‘zingizni qiziqtirgan yo‘nalishni tanlang va korporativ karta yordamida aviachiptalar xarid qiling, bunda Siz buxgalteriya uchun zarur bo‘lgan hisob-fakturalarni ham olasiz.

## 3. Onlayn ro‘yxatdan o‘tish

Parvozdan 24 soat oldin Siz aviakompaniya saytida qatnovga onlayn ro‘yxatdan o‘tishingiz mumkin.
Diqqat! Hozirgi vaqtda «Uzbekistan Airways» AJ reyslariga onlayn ro‘yxatga olish xizmati faqat respublika ichidagi yo‘nalishlar uchun amalga oshirilishi mumkin. COVID-19 bo‘yicha amaldagi cheklovlar tufayli chet el davlatlari vakolatli organlari qarori bilan xalqaro yo‘nalishlarda onlayn ro‘yxatga olish xizmati vaqtincha amalga oshirilmaydi.

## 4. Me’yordan ortiq yuk

Agar Sizning yukingiz yo‘nalishingiz bo‘yicha o‘rnatilgan bepul tashish me’yoridan ortiq bo‘lsa, Siz aviakompaniya saytidagi “Me’yordan ortiq yuk” xizmatidan foydalanib, uni rasmiylashtirishingiz mumkin.

## 5. Joyni tanlash

Siz samolyot salonidan o‘zingizni qiziqtirgan joyni oldindan tanlashingiz mumkin. Buning uchun Siz aviachiptangiz raqami va yo‘lovchining familiyasini kiritib, samolyot xaritasidan o‘zingizga ma’qul joyni tanlashingiz mumkin.

# UZBEKISTAN AIRWAYS ADDITIONAL SERVICES

## 1. Buying an air ticket online

At www.uzairways.com you can purchase an air ticket for any flight of Uzbekistan Airways JSC. Book the direction you are interested in and purchase an air ticket through the national payment systems UzCard/Humo, as well as through the international systems Visa/MasterCard.

## 2. Buying an airline ticket online using Uzcard corporate cards for legal entities

At www.uzairways.com you can purchase an air ticket for any flight of Uzbekistan Airways JSC, book the direction you like and purchase an airline ticket using a corporate card with subsequent receipt of the necessary invoices for accounting.

## 3. Online check-in

24 hours before the flight departure, you can make the online check-in procedure on the airline's website.
Attention! Currently, the online check-in service for flights of Uzbekistan Airways JSC is possible only on domestic flights.
Due to the current restrictions on COVID-19, the decision of the authorized state bodies of foreign countries, the online registration service for international destinations is temporarily not available.

## 4. Extra luggage

If your luggage exceeds the free baggage allowance for your destination, you can use the «Exctra Baggage» service at the airline's website in advance.

## 5. Seat selection

To select the seat in advance, you need to enter the ticket number and the passenger's last name and then select the seat you like on the map of the aircraft cabin.

# UzAirPlus
## sadoqatlik dasturi

Parvozlar uchun ball to'plang va ularni aviachiptalarga almashtiring. UzAirPlus – bu «Uzbekistan Airways» AJ tez-tez uchadigan yo'lovchilarini rag'batlantirish dasturi. Uzbekistan Airways aviakompaniyasining 16 dan katta har bir yo'lovchisi UzAirPlus dasturi ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Buning uchun www.uzairways.com saytidagi dasturda ro'yxatdan o'tish zarur. Ro'yxatdan o'tgan ishtirokchi o'z kartasiga rag'batlantiruvchi 500 ballni oladi. Dastur ishtirokchilari har bir foydalanilgan aviachipta uchun ball oladi va uning ma'lum miqdorini yig'ib, o'z darajasini yangilaydi.
Hammasi bo'lib uchta daraja bor, ularning har biri uchun o'z imtiyozlari mavjud:
“PREMIUM” – 5000 status ball olgan yo'lovchilar birinchi darajani olishadi va keyinchalik bu ballarni mukofotli aviachiptalarga almashtirish yoki xizmat ko'rsatish klassini oshirish uchun ishlatishi mumkin bo'ladi.
“SILVER” – 250 000 status ball to'plagach, yo'lovchilar shuningdek bu ballarni bagaj olib ketish me'yorini +10 kg oshirish va O'zbekiston aeroportlaridan/ga uchib ketish/ uchib kelishda yuqori qulayliklarga ega zallardan foydalanish uchun ishlatishlari mumkin bo'ladi.
“GOLD” – hisobida 350 000 status ball yig'ilgan yo'lovchilar o'z ballarini yuqorida sanab o'tilgan barcha xizmatlarga almashtirishlari, shuningdek o'z ballaridan foydalanib bagaj olib ketish me'yorini +15 kg gacha oshirishlari mumkin.



# UzAirPlus
## loyalty program

Save points for flights and exchange them for air tickets. UzAirPlus is a frequent flyer incentive program of Uzbekistan Airways company. Every passenger of Uzbekistan Airways above 16 years old can become a member of the UzAirPlus program. You need to register on the website www.uzairways.com. After registration, the participant receives 500 welcome points on the card. Members of the program receive points for each used air ticket, and after accumulating a certain amount, they update their member level. There are three levels in total, each has its own privileges.
"PREMIUM" - 5,000 status points, passengers receive the first level and can subsequently exchange them for award tickets and for upgrading the class of service.
“SILVER” - 250,000 status points, passengers can also exchange them to increase the baggage allowance of +10 kg and to use luxury lounges upon departure / arrival from / to airports in Uzbekistan.
“GOLD” – passengers who have 350,000 status points on their account can exchange points for all the above services, and third-level members can increase their baggage allowance by +15 kg by using their points.

Qr-kodni skanerlang va dastur ishtirokchisiga aylaning.

Scan the QR-code to become the program member.

# YO‘LOVCHILAR UCHUN FOYDALI MA’LUMOTLAR

Hurmatli O‘zbekiston mehmonlari. Sizga qulaylik yaratish maqsadida mamlakatimizda mavjud bo‘lgan xizmatlar haqida muhim ma’lumotlar bilan tanishishni taklif qilamiz.

| | | |
|---|---|---|
| Tez yordam | 103 | 24/7 |
| Yong‘in xavfsizligi | 101 | 24/7 |
| Sayyohlik politsiyasi | +998 70 762 40 29 | 24/7 |
| Baxtsiz hodisalar byurosi | +99871 233 28 14 | 24/7 |
| Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi | 1050 | 24/7 |

# USEFUL INFORMATION FOR PASSENGERS

Dear guests of Uzbekistan. For your comfort, we offer you useful information about important services available in our country.

| | | |
|---|---|---|
| Ambulance | 103 | 24/7 |
| Fire Department | 101 | 24/7 |
| Tourist police station | +998 70 762 40 29 | 24/7 |
| Bureau of accidents | +99871 233 28 14 | 24/7 |
| Emergency department | 1050 | 24/7 |




For more information:

jet.charter@uzairways.com

+998 78 140 46 02

Pilatus PC-24 jet combines comfort and safety
An individual flight with the company up to
8 passengers in any direction in the shortest time




حلال
Halal

Inflight meal is provided by Ketring LLC

You can pre-book special meals free of charge at least 48 hours before the departure.

Siz parvozdan kamida 48 soat oldin maxsus ovqatga bepul buyurtma berishingiz mumkin.